



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BANK TIZIMINI ISLOH QILISH MASALALARI

¹Ergashev Ilhomjon Ikromovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar”
kafedrası katta o‘qituvchisi, i.f.f.d., (PhD). ergashev_1980@list.ru

²Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 2-bosqich
talabasi ahrorbeksharobiddinov9@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 01st April 2023

Accepted: 14th April 2023

Online: 25th April 2023

KEY WORDS

Virtual texnologiyalar,
innovatsiyalari, P2P tizimi,
virtual bank xizmatlari,
elektron tijorat, raqamli imzo.

ABSTRACT

*Maqolada bugunni shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli
iqtisodiyot sharoitida bank tizimiga yangi innovatsiyalarni
qo‘llash yo‘llari bayon etilgan.*

KIRISH

Bugungi kunda barcha soxalar kabi “Bank sohasi”da ham yangi texnologiyalar juda keng qo‘llanilmoqda. Bank faoliyatida yangi kompyuter texnologiyalari, kredit kartalari va pul-moliya bozorida muhim innovatsiyalarni joriy etilmoqda. Shuni aloxida ta’kidlash joizki, banklar ijtimoiy tarmoqlarga, mobil internetga va hattoki, onlayn o‘yinlar e’tiborini tortadigan yangi reklama kanallarini juda faollik bilan rivojlantirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-may kungi “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida tegishli ushbu soha strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ham tasdiqlandi. Hujjat asosida kelgusidagi 5 yil davomida bank sohasini o‘zgartirishning konseptual asoslari, tamoyillari va yo‘nalishlari belgilab olindi. Unga ko‘ra, bank sohasida o‘rta muddatli islohotlarning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- sektorni qayta qurish – banklarni o‘zgartirish va xususiylashtirish;
- bank nazorati bo‘yicha Bazil qo‘mitasi standartlarini, moliyaviy
- hisobotlarning xalqaro standartlarini va boshqalarni joriy etgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar, kreditlash mexanizmlari va biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va kengaytirish;
- kadrlar malakasini oshirish¹.

¹ Umirova G.Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimini isloh qilishning yo‘llari. Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi, 37-38-betlar. Tatuff-epai.



MUHOKAMA

Bank innovatsiyalari - yangi bank mahsulot va xizmatlarining yig'indisi sifatida mijozlarga foyda olishda yordam beradigan yangiliklar kiritishni joriy qilish orqali resurslar salohiyatini shakllantirish va joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish jarayonida qo'shimcha daromad olishga qaratilgan yangi texnologiyalar sohasida bank faoliyatining maqsadi va natijasi haqida sintetik tushunchadir.

Aksariyat global banklar raqamli yoki mobil shaklga o'tishni qo'llab - quvvatlamoqda. Bugungi kunga kelib, banklar mijozlarining salmoqli qismini online dunyoga to'laonli moslashgan va busiz hayotini tasavvur qilolmaydigan yosh avlod tashkil etadi. Shunisi qiziqki, dunyo aholisining 90 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etishini hisobga olsak, bank xizmatlarini raqamlashtirish banklar uchun hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. 1980-yillar oxirlariga kelib, Angliyaning National Westminster Bank telefon aloqasi asosida mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatishning kashfiyoti amaliyotga joriy etilgan. 1995-yil "to'g'ridan-to'g'ri banking" muvaffaqiyatlari dastlabki virtual banklar paydo bo'lishiga olib keldi. Banklarning aksariyati global tarmoqda o'z saytlariga ega, lekin ular asosan reklama va axborot berish maqsadlarida foydalaniladi. Ayrim banklar qimmatli qog'ozlar xarid qilish va sotishga talabnomalar berish imkonini beradigan dasturiy mahsulot xarid qildi, internet orqali bank hisob raqamlarini boshqarish tizimi - uy bankingini ishlab chiqdilar. Bu tizim valyutani konvertasiya qilish, kommunal xizmatlar uchun pul to'lash, pul o'tkazmalarini uydun turib o'tkazishga imkon beradi.

Virtual bank xizmatlari bir onda bajariladigan va kamxarjliligi bilan an'anaviy banklardan alohida ajralib turadi. 24/7 formatda faoliyat olib boradigan raqamli banklar mijozlar potensialining kattagina qismini egallagan desak, aslo adashmagan bo'lamiz. 2000 - yillarda online banking e-savdoda namoyon bo'la boshladi. Osiyodagi dastlabki litsenziyalangan raqamli banklar Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Tayvan va Gong Kongda joriy etilgandir. Prezidentning - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan -raqamli banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan². Shundan kelib chiqib, Respublikamizda 2020-yilda Anorbank va TBC banklar dastlabki raqamli banklar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Anorbank va -TBC banklar o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, raqamli bank mijozlari 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni bunda, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'minlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi³. O'zbekistonda davlat ishtirokidagi banklar anchani tashkil etadi. Shuning uchun

² PF - 5296 - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 09.01.2018

³ Depozit.uz - O'zbekistondagi raqamli banklar va ularning istiqbollari 26-iyul 2021-yil.



ularni raqamlashtirish mamlakat YAIM o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat banklarining raqamli transformatsiyasi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biri bo'la oladi.

XULOSA

Xulosa sifatida, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'tishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi hamda butun dunyo raqamlashtirish poygasiga munosib javob hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham birdek kamaytiradi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Shavkat Mirziyoyevning "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil 12-may
2. PF – 5296 —O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 09.01.2018
3. Depozit.uz —O'zbekistondagi raqamli banklar va ularning istiqbollari 26-iyul 2021-yil.
4. Назаршоев Н.М., Гужина Г.Н., Гужин А.А., Ежкова В.Г. Стратегия развития бизнеса как инструмент управления конкурентоспособностью// Инновации и инвестиции. 2016. № 4. С. 90-92.
5. Петрухина Е.В., Гужин А.А., Величко Н.Ю., Нижарадзе Л.Д., Волкова А.В., Овешникова Л.В. Современные теории менеджмента, Орёл, 2014. - 110 с.
6. Stat.uz